

YUKSAK HUQUQIY MADANIYAT MAMLAKATIMIZ RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI

Jabborova S.S.¹

¹ f.f.f.d(PhD) dotsent, Buxoro davlat pedagogika instituti.

Obidova Zilola Fozilovna¹

¹ Buxoro davlat pedagogika instituti. Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi) 1- bosqich magistranti.

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 28.01.2025

Revised: 29.01.2025

Accepted: 30.01.2025

KALIT SO'ZLAR:

Jamiyat, huquqiy
ong, huquqiy bilim,
huquqiy ta'lim, huquqiy
madaniyat, huquqiy
targ'ibot

Mazkur maqolada yuksak huquqiy madaniyatning jamiyat rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Huquqiy ongni shakllantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlari misolida huquqiy madaniyatning ijtimoiy barqarorlikka ta'siri ko'rsatilgan. Shuningdek, mamlakatda huquqiy madaniyatni oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning natijadorligi hamda ularning uzoq muddatli ijobiy ta'siri muhokama qilingan.

KIRISH. Huquqiy madaniyatning ijtimoiy-falsafiy tahliliga so'nggi yillarda katta e'tibor qaratilib, ushbu mavzuda ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, huquqiy madaniyatni tahliliy-funksional nuqtai nazardan o'rganish masalalari falsafa, huquqshunoslik, psixologiya va sotsiologiya sohalarida yetakchi mavzulardan biriga aylangan. Shu bilan birga, huquqiy madaniyat davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida rivojlanib borayotgani ham ahamiyatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiya qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida "Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklarini, sha'ni va qadr-qimmatini

hurmat qilish nafaqat majburiyat, balki kundalik qoidaga aylanishi zarur”, degan fikrlari alohida ta’kidlangan edi.

Jamiyatimizning rivoji va kelajakdagi istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi bevosita mamlakatimizda yashayotgan insonlarning huquqiy ongi va madaniyatiga uzviy bog’liqdir. Huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida davlatning milliy merosi, qadriyatlari va huquqiy an’analari muhim o’rin egallaydi. Bu esa davlatning qonunchilik bazasi va huquqiy me’yorlari yig’indisida o’z ifodasini topadi.

Huquqiy madaniyatni rivojlantirish faqat qonunlarning mavjudligi yoki ular to’g’ri qo’llanilishi bilangina chegaralanmaydi. Balki, bu jarayon fuqarolarda qonunga hurmat hissini tarbiyalash, huquqiy savodxonlikni oshirish va qonunlarga bo’ysunishni hayotning ajralmas qismiga aylantirish orqali amalga oshadi. Ayniqsa, jamiyatning barcha qatlamlarida, xususan yoshlar orasida huquqiy bilimlarni keng targ’ib qilish, ularda huquq va erkinliklarning ahamiyatini chuqur anglashga erishish zamonaviy davlat siyosatining dolzarb vazifalaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, huquqiy madaniyat nafaqat fuqarolar va davlat o’rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, balki jamiyatdagi barqarorlik va tartibni ta’minlashda ham muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Huquqiy madaniyat madaniyatning bir turi sifatida turli jihatlarida talqin qilinadi. Masalan, huquqiy madaniyatni “jamiyatdagi huquqiy tizimning rivojlanish darajasi, xalqning mazkur huquqiy tizimdan xabardorlik darajasi, fuqarolarning qonunga bo’lgan hurmati, huquqiy normalarning ijrosi darajasi, qonunga rioya qilmaganlarga nisbatan murosasiz bo’lish va qonunga itoatkorlik darajasi” sifatida tushunish mumkin. Shuningdek, “jamiyatning huquqiy madaniyati — huquqiy ong, qonuniylik, qonunlarni takomillashtirish va huquqiy tajriba bilan boyitilgan, insoniyat tomonidan huquq sohasida yaratilgan boyliklarni o’z ichiga olgan ijtimoiy madaniyat turi” sifatida ham talqin etiladi.

Shaxsning huquqiy madaniyati rivojlanib borgan sari, jamiyatning huquqiy madaniyati ham shakllanadi va yuqori darajaga erishadi. Jamiyatdagi huquqiy madaniyatni rivojlantirish uchun fuqarolarning huquqiy bilimlarini zamonaviy usullar bilan oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu maqsadda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 9-yanvar kuni “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida”gi Farmon imzolangan edi. Mazkur farmon doirasida keng ko’lamli ishlar olib borilmoqda. Yana bir muhim qadam sifatida, 2022-yil 28-yanvar kuni “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmon qabul qilindi. Ushbu farmon bilan “Inson qadri”

konsepsiyasiga asoslangan davlat dasturi tasdiqlandi va bu strategiya jamiyatni barcha sohalarida rivojlantirish uchun puxta rejalashtirilgan tizimni belgilab berdi.

Mazkur farmonda aholi huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan muhim qoidalar ham mavjud. Xususan, davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta'lim muassasalari bilan samarali hamkorligini yo'lga qo'yish vazifasi belgilandi. Adliya vazirligiga aholiga qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini keng tushuntirish, huquqiy targ'ibot ishlarini tashkil etishda yangi usullarni qo'llash kabi vazifalar yuklatildi. Bunda, ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar ahamiyatli vosita sifatida ko'rilmogda. Bugungi globallashuv davrida aholi, xususan, yoshlarning katta qismi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi va ularga huquqiy bilimlarni yetkazishda ushbu platformalardan foydalanish zaruriy hisoblanadi.

Bundan tashqari, farmon nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni kamsitmaslik, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar belgilangan. Bular nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatda o'z o'rnini topishi va o'zini demokratik davlatning to'laqonli a'zosi sifatida his qilishlariga yordam beradi. Shu bilan birga, aholining nogironlik belgisi bo'yicha diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik va ushbu masalalar bo'yicha xabardorlikni oshirish orqali jamiyatning huquqiy madaniyatini yanada rivojlantirishga erishiladi.

Umuman olganda, jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish jarayoni ko'plab omillarni – ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, davlat siyosati va jamoatchilik fikrini – o'z ichiga oladi. Bu esa jamiyatning huquqiy tizimini barqarorlashtirish va taraqqiy etayotgan davlat sifatida rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama. Huquqiy madaniyat jamiyatda huquqiy ong, qonunchilik darajasi, qonunlarni amaliyotda qo'llash samaradorligi va fuqarolarning huquqiy bilimiga bo'lgan hurmatini aks ettiruvchi muhim ijtimoiy hodisa sifatida talqin etiladi. U fuqarolarning huquq va majburiyatlari haqidagi bilimlari, qonunlarga hurmat va itoatkorlik, huquqbuzarlikka nisbatan tanqidiy munosabat orqali jamiyat taraqqiyotida asosiy rol o'ynaydi.

Huquqiy madaniyat nafaqat shaxsiy darajada, balki butun jamiyatda barqaror ijtimoiy rivojlanishning asosiy sharti hisoblanadi. Jamiyatda huquqiy madaniyat shakllanmas ekan, qonunlarning to'laqonli ishlashi, huquq-tartibot organlari faoliyatining samaradorligi va adolatning qaror topishi mumkin emas. Shu bois huquqiy tarbiyaga ahamiyat berish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar huquqiy madaniyatni targ'ib qilishda muhim vositaga aylanmoqda. Xususan, yosh avlodning huquqiy ongini shakllantirishda interaktiv platformalar va zamonaviy usullar katta ahamiyat kasb etmoqda. Fuqarolarning huquqiy bilimlarini oshirish uchun davlat organlari, ta'lim muassasalari va nodavlat tashkilotlar o'rtasida samarali hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish dolzarb ahamiyatga ega.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirishda fuqarolarning nogironlik belgilari bo'yicha kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, ularning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash alohida e'tiborga loyiqdir.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, har bir jamiyatda oqilona olib borilayotgan siyosiy jarayonlar ushbu mamlakatning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bois, yuqorida tilga olingan farmonni O'zbekistonning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning debochasi sifatida baholash mumkin. Ushbu islohotlarni belgilangan strategik mexanizmlar asosida samarali tatbiq etish, ulardan yuqori natijadorlikka erishish uchun har bir fuqaroning hissasi katta ahamiyatga ega. Bu esa bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. –T.: O'zbekiston, 2019 y. 83-bet.
2. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1-tom. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998, 11-bet.
3. Odilqoriev H, Yakubov Sh. Milliy huquqiy tizim va huquqiy qadryatlar. – T.:2011, 56-bet.
4. To'ychiev B., Huquq falsafasi. –T.:2021, 18-bet